

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING JAHON VA O'ZBEK NASRIDA O'RNI

Turdiyeva Farangiz Farhodovna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Scientific advisor: Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludidan boshlab, ibratli umr yo'lidan so'zlovchi Boburnoma asarinining o'zbek va dunyo adabiyot ixosmandlariga ahamiyatliligi haqida.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, badiiy adabiyot, bunyodkorlik, shaxs kamoli, ulug'vorlik, ilm-fan, boshqaruvchanlik.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и творческому пути великого правителя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура, начиная с его рождения. Особое внимание уделяется значимости произведения «Баburnаme» для любителей узбекской и мировой литературы. В статье раскрывается влияние этого произведения на развитие художественной литературы, прослеживается образ совершенной личности правителя, его вклад в науку, культуру и государственное управление.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бакур, Баburnаme, художественная литература, созидание, совершенство личности, величие, наука, управленческие качества.

Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' shoir va nosir, qomusiy bilimlar egasi bo'lishi bilan birga, yirik davlat arbobi va mohir sarkarda ham edi. Uning ijodi me'rosi orasida o'zbek nasri rivojida muhim bosqichni tashkil etgan "Boburnoma" asari katta o'rinni egallaydi. Ushbu asar adabiy-badiiy fikr taraqqiyotiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistoning tarixi, jug'rofiyasi, etnogirafiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu asar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, unda muallifning pedagogik qarashlari ham o'z ifodasini topgan.

Bobur shahsiyatining o'zi ko'p qirrali bo'lib hayoti davomida qilgan ishlarining o'zi biz uchun muhim darslik sifati xizmat qiladi. Boburning bosh maqsadi bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklash va boshqarish ediki, bu yo'lda u muhim natijalarga erishdi ham. Eng yaqin qarindoshlarining fitna-yu xiyonatlarini kechirdi, dushmanlari bilan sulh tuzishni ma'qul ko'rdi, suyuqlik egachisi Xonzodabegimni ashaddiy dushmani Shayboniyxon nikohiga kirishiga ham rozi bo'ldi, Hindistoni sultoni Ibrohim Lo'diy jangda mahv etilgach uning onasi Baydaga ko'p muruvvatlar ko'rsatib saroyidan joy berdi. Shoh Bobur bu kabi tadbirlarini saltanat yaxlitligini asrashda muhim diplomatik yo'l, deb bildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining davlatchilik boshqaruvida millat, qavm va qabilalar, Hindistonda esa turli-tuman kastalar orasidagi mazhabi va diniy nizolarni imkon qadar ahillik, o'zaro tushunish va ayrim jihatlarga qisman yon berish orqali, bugungi til aytganda tolerantlik siyosatini yurgizgan. Amerikalik tadqiqotchi Bek Boburga bergan qisqa va lo'nda tavsiflarida ulug' siymoning hayot yo'li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatiga eng muhim jihatlarni muhtasar tarzda yoritishga erishgan.

Yana aytish mumkinki, "Boburnoma" har tomonlama ajib asar. Birinchidan, u avtobiografik-Bobur hayoti, zamondoshlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ikkinchidan, asar o'sha davr geografiyasi, madaniyatshunosligi, san'ati, hattoki, o'simliklar olami haqida ham ma'lumotlarga boy. Qiziq jihati shundaki, asarda 1508-yildan 1519-yilgacha bo'lgan biror voqea kuzatilmaydi. Bu balki muallifning xohishi yoki qo'lozmaning turli sabablarda yo'qolgan bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu asar Boburning har tomonlama yetuk, ziyrak, zukko shaxs bo'lganidan dalolat beradi. Ayniqsa, asardagi hikmatlar qadrlidir. Unda sharqona donishmanlik aks etgan. Masalan: "...har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bilan amal qilmoq kerak", "agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bilan badal qilmoq kerak" kabi nasihatlar ham uchraydi.

Boburnoma asosida bir qator badiiy asarlar yaratilgan. Xususan, fransuz adibasi Flora Anna Stilning "Boburxon", yana bir fransuz adibi Fernard Grenard "Bobur", amerikalik yozuvchi Harold Lembning "Bobur yo'lbars" romanlari. Hindistonlik Muni La'l boburiylar tarixiga asoslanib 6 ta roman yozgan. O'zbek adabiyotida esa Oybek, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron kabi yozuvchilar Boburga atab qissa-romanlar yozgan.

Xulosa

O'zbek va jahon adabiyot dunyosining noyob durdonasi bo'lmish bu asar Zahiriddin Muhammad Boburning ibratli hayot-ijod yo'lidan so'zlaydi

"Boburnoma" o'z davrida nafaqat adabiyot, balki madaniyat, tarix, siyosat, jug'rofiya va san'at sohlarinning kamol topishi uchun qo'llanma vazifasini ham o'tagan. Bu asarni yoshlar tomonidan ko'p mutolaa etilishi, ularning vatanparvarlik ruhida ulg'ayishiga, tarixiy o'zligini anglashga va tinchlik qadriga yetishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatova Dilorom Ne'matovna: Zahiriddin Muhammad Boburning "Xatti Boburiy" hamda "Boburnoma" asarlarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati maqolasidan
2. Bobur hayoti va ijodi www.oz.sputniknews.uz
3. Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi, & Uzswlu Zoirova Sevinch. (2024). THE REPRESENTATION OF BABUR IN THE WRITINGS OF GERMAN AUTHOR FRITZ WURTLE. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(12), 554–556.

4. "Innovative and integrative problems of foreign language development in a multilingual environment" international scientific-practical conference , Tashkent, 22-May (Session IV)